

IJODKOR OBRAZINING BADIY TALQINIDA PSIXOLOGIZM

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10116351>

Mahmudova Shoxista Abdusalomovna

ALFRAGANUS UNIVERSITY

ORCID: 0009-0003-1095-1723

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada bugungi kunda ijodkor obrazining badiiy talqinida psixologizm va uning xususiyatlari muhim o'rin tutishi borasida atroflicha fikr yuritilgan. Ijodkor ahli tafakkur, aql, kuchli ruhiy taassurot asosida hayot haqidagi xulosalarni qog'ozga tushiradi. Shuning uchun har bir tirik asarga yozuvchining dunyoqarashi, ruhiy quvvati singib ketadi. Sh.Xolmirzayev, E.A'zam, N.Eshonqul kabi adiblarning asarlarida tasvirlangan ijodkor obrazlarini tahlilga tortdik va bu asarlarda ijodkor obrazi qay tarzda tasvirlanganligi, adiblarning portretidan foydalanish uslublari, qahramon dunyoqarashi, xarakteri va bu xarakterlarni shakllanishida ijtimoiy sharoit, ijtimoiy muhit ta'siri qay darajada ekanligini, mustaqillik davri nasrida ijodkor obrazi qanday qiyofada tasvir etilganligini kuzatdik. Qissa va hikoya qahramonlari xarakterini ochishda adiblar ijtimoiy muhit va ijtimoiy sharoit tasvirini beradi. Ijtimoiy muhitning ijodkor dunyoqarashiga ta'sir etishini turlicha baholaydilar. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida ijodkor obrazini davr muhitiga emas, balki inson birinchi planga chiqadi. Barcha ko'rguliklarga insonning o'zi sababchi ekanligini uqtirsa, N.Eshonqul "Momoqo'shiq" qissasidagi Sh.Saloh, "Tun panjaralari" qissasidagi ismsiz qahramon ijtimoiy muhit orqali adib o'zi yashagan davrning ijodkor ruhiyatiga qay darajada ta'sir etganligini ko'rsatadi, E.A'zamning "Shoirning to'yi" qissasidagi qatag'on shoir, "Yozuvchi" hikoyasidagi domla obrazi orqali esa adib bu muhit qahramonni qay darajaga olib kelishi mumkinligini tasvirlaydi.

Istiqlol davri nasrida ham yozuvchilar o'z o'y-kechinmalarini, ijod jarayoni mashaqqatlari, ijodkor ruhiyatidagi evrilishlar, ko'nglining tub-tubidagi dard va armonlarini asarlardagi ijodkor obrazlari orqali ifoda etishdi. Sh.Xolmirzayevning "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" (Quadrat aka), "Yozuvchi" (Odil Yoqubov), "Bulut to'sgan oy" (Quvvatjon) kabi hikoyalarida, E.A'zamning "Shoirning to'yi" (Otashqalb shoir) qissasi va "Yozuvchi" (domla) hikoyasida, N.Eshonqulning "Momoqo'shiq" (Shamsi Saloh) va "Tun panjaralari" (Ismsiz qahramon) qissalarida ijodkor ruhiyatining goho jo'shqin, goho tushkin, goho alamli (achchiq), goho quvonchli (shirin) kayfiyatlarini, ijtimoiy muhit va sharoitga bo'lgan tanqidiy qarashlarini ro'y-rost tasvirlaydilar.

Kalit so'zlar

Uslub, hikoyachilik, psixologizm, muallif, ijodkor, obraz.

Adabiyot ilmining insonshunoslik mohiyati hech qachon shubha ostiga olingani yo'q va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi. Chunki aynan badiiy ilg'ashgina inson ichki dunyosi sirlarini to'liq ochishga, uning turli oqimlar va murakkab ijtimoiy muhit iskanjasida qolgan qalb harakatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda muammo markaziga Inson va uning ichki kechinmalarini tasvirlash yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Holbuki, birinchi planga shaxs muammosining chiqishi, inson ruhiyatiga qiziqishning ortishi, urushlar, inqirozlar, gumanitar halokatlar xarakteri bilan shartlanadi; ikkinchidan, adabiyot va adabiyotshunoslikning "erkinlashganligi", mustabid tuzumdagi g'oyaviy yo'l-yo'riqlarga qaram emaslik o'tgan asrning so'nggi choragida ijod qilgan yozuvchilar asarlarida inson ichki olami tasvirining barcha go'zallik va teranliklarini yangicha, butun va to'laligicha talqin qilish imkonini berdi.

Badiiy adabiyotning sifatli xususiyatlaridan biri qahramonni oddiy hayot kechiradigan inson qilib emas, balki insonning sirli ichki dunyosini yashirin ravishda insonning ko'ngil kechinmalarini aniq va yorqin aks ettirishi hisoblanadi. Adabiyotda inson ichki dunyosining chuqur badiiy tadqiqi "badiiy psixologizm" deb ataladi. Uzoq o'tmishdagi tarixiy davr mobaynida psixologizm – badiiy adabiyotning yashirin bir siri bo'lib, u insonning ko'ngli haqida gapiradi, u har bir yozuvchining o'zligini so'zlaydi. Insonning ichki dunyosini tasvirlash badiiy adabiyotning eng baland cho'qqisidir. Psixologizm badiiy adabiyotda uch asosiy ko'rinishda: adabiyotning tug'ma belgisi, muallif psixikasining muayyan ifodasi, muallif tomonidan ongli tanlangan, asar yaxlitligini belgilaydigan estetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologizm – grek. so'zidan oligan bo'lib, (psyche) "qalb, ko'ngil", (logos) "fikr, tafakkur", degan ma'nolarni anglatadi. Bu muallifning qahramonning fikri, hissiyoti, uning ichki dunyosini to'g'ridan-to'g'ri muallif nutqi orqali berilishi, qahramon o'z-o'zini analiz qilishi bilan, ichki va tashqi nutq vositalari orqali berilishidir.

A.B.Yesin fikricha, psixologizm bu: "Aql va his-tuyg'ularni yetarlicha to'liq, mufassal shaxsiy xayoliy dardlarini badiiy adabiyotning o'ziga xos vositalar yordamida teran va chuqur tasvirlashdir"⁴². A.B.Yesinning ushbu fikridan ko'rinadiki, psixologizm – bu o'ylab topilgan shaxs (badiiy personaj) hislari, fikrlari, kechinmalarining badiiy vositalar yordamida batafsil, ko'lamdor va chuqur

⁴² Yesin A.B. Psixologizm russkoy klassicheskoy literatury. – M., 1988.

ifodalanishidir. V.V.Kompaneets fikricha, "Psixologizmning rivojlangan asosi bu - inson barcha his-tuyg'u, aql-idrok doirasi bilan o'zini o'rab turgan dunyo hodisalarining serqirra, murakkab, hissiy va intellektual doirasini, ichki dunyosini, ko'p tomonlama o'zaro bog'liqligini ichki dunyo orqali bilishning badiiy kalitidir". U o'zining "Badiiy psixologizmning tadqiqot muammolari" maqolasida mazmun jihatdan aynan sinonim bo'lmaydigan ikki tushunchaga "psixologizm" va "psixologik analiz" ga ajratadi. Psixologizm tushunchasi psixologik tahlil tushunchasiga nisbatan kengroq tushunchadir va u asarda muallif psixologiyasi ifodasini o'z ichiga oladi. Maqola muallifi: "Asarda psixologizm mavjud bo'lishi lozim yoki bo'lmasligi masalasini yozuvchi hal qilmaydi"⁴³, deb ta'kidlaydi. Psixologik tahlil ham o'z navbatida ob'ektga yo'naltirilgan qator vositalarga ega. Bu yerda esa badiiy asar muallifining ongli ko'rsatmasi hozir bo'ladi. Psixologik tahlil orqali bu muammo yechiladi. Professor Hotam Umurov ta'biri bilan aytganda, "... tashqi muhit xarakter ichki dunyosida qo'zg'alishlar, zilzilalar, kechinmalar o'yg'otgani kabi, bu ichki dunyoning murakkab "sirlari" xarakter, xatti-harakatlarni asoslashga, boshqarishga, tashqi muhit rivojiga turtki beradi"⁴⁴.

"Ko'rinadiki, psixologik tahlil qonuniy badiiy hodisa bo'lib, ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta'sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Bu belgi yozuvchini inson qalbidек keng va sirli, ko'p qirrali va bepoyon olamning bilimdoni va bu olamning sir-asrorini ochib beruvchi kashfiyotchisi ekanligini namoyon qiluvchi kuch-qudratga ega. Shuning uchun ham inson psixologiyasi (demakki, uning ichki dunyosi, kechinmalari)ni tasvirlovchi san'atkor o'zini har qanday kishining ruhiy holatida tasavvur eta olishi, uning qalb va qiyofasini ko'rsata bilishi kerak"⁴⁵.

Ba'zan tadqiqotchilar psixologizm deganda, adabiyotda insonlar xarakterining tasvirini tushunadilar, xolos. Biroq ular har qanday tasvirga ega emas, balki xarakter "tirik qadriyat" sifatida bo'y ko'rsatadigan tasvirga nisbatan shunday fikrda bo'lsalargina, to'g'ri bo'lar edi. Holbuki, inson ichki dunyosini tasvirlash - psixologizm bu obrazni ko'rish - tasvirlash, u yoki bu hayotiy xarakterni tushunib yetish va baholash usulidir.

Binobarin, "Badiiy psixologizm bu qahramonlarning g'oyaviy-ruhiy izlanishlarini o'zida mujassam etgan badiiy shakl, inson xarakterining shakllanishini, shaxs dunyoqarashidagi asoslarini adabiyot tomonidan

⁴³ Kompaneets V.V. Xudojestvennyy psixologizm v sovetskoy literature (1920-ye gody.) – T., 1980. – S. 113.

⁴⁴ Umurov H.I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: Fan, 2007. – B. 42.

⁴⁵ Uellek R i Uorren O. Teoriya literatury. – M.: Progress, 1978. – S. 95-107.

o'zlashtirilish shaklidir. Psixologizmning ma'rifiy-muammoviy va badiiy qimmati, eng avvalo, shunda ko'rinadi⁴⁶.

Personaj ichki va tashqi jihatdan tafovut qilinadigan alohida tuzilishga ega. Uning tasviri, bir yo'la ham inson ichki olamini, ham tashqi qiyofasini aniqlab beradigan qator komponentlardan tashkil topadi. Muddaolar, istaklar, fikrlar, hislar hamda ongdagi g'ayrushuuriy tebranishlar badiiy asarlarda turlicha o'z aksini topadi. So'z san'atining ilk davrlarida ular ochiqchasiga berilmasdan, bilvosita tasvirlangan. Biz ba'zan personajlarning qilmishlari haqida hamma narsani bilamizu, ammo o'zlarini tutishlarining ichki, ruhiy motivlari haqida deyarli hech narsa anglamaymiz. Kechinmalar esa to'liq voqealar rivojiga bog'liq bo'lib, asosan, tashqi belgilar orqali tasvirlanadi: qahramon fojiga uchraganida "achchiq ko'z yoshi to'kadi" yoki "oyoqlari mayishib ketadi".

Bu paytlarda yaratilgan asarlarda qahramon ichki dunyosi so'zlar yordamida to'g'ridan-to'g'ri ochilsa-da, kechinmalar oddiy, badiiy bo'yoqlarsiz, detallashtirilmagan tasvirdan iborat bo'lgan. Gomer eposida (keyinchalik qadimgi yunon tragediyalarida ham) qiyomiga yetgan inson hislari "yirik planda" (ko'p planli emas) chizilgani, ifodaning patetik (ko'tarinki ruh bilan so'zlash) tus olgani fikrimizni tasdiqlaydi. "Iliada"ning so'nggi bobini eslaylik: o'g'li Gektorni dafn etish arafasida turgan Priamning qayg'ulari antik adabiyotning inson kechinmalari olamiga chuqur kirib borganligini ko'rsatadi. Judolik azobida qiynalayotgan ota qayg'usining naqadar chuqurligi o'g'lining jasadini olib kelish uchun Axillning huzuriga borishdan tap tortmaganida ham, boshiga tushgan fojia haqidagi so'zlarida ham ("Men, yer yuzida inson zoti boshdan kechirmagan dahshatni boshimdan o'tkazayapman"), qahramon to'kkan ko'z yoshlaru, to'qqiz kunlik motam marosimining tantanavorligida ham ko'rinadi. Ammo bu yerda ko'p planlilik, murakkablik, kechinmalar dialektikasi ochilganligi xususida gap bo'lishi ham mumkin emas.

Inson ichki dunyosi murakkabliklariga, aqlning turli yo'nalish va impulslariga, ruhiy holatlarning almashinib turishiga bo'lgan qiziqish adabiyotda keyingi uch-to'rt asrda qaror topdi. Bunga V.Shekspirning tragediyalarini yorqin misol qilib keltirish mumkin. "Hamlet" va "Qirol Lir" qahramonlari ruhiyatidagi murakkab va hayratomuz psixologik evrilishlarni inson ongini badiiy o'zlashtirish - psixologizm termini bilan belgilash qoidadir. Bu kechinmalarining o'zaro aloqadorligini, dinamikasini va betakrorligini individual tarzda qayta tiklashdir. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib sentimental kayfiyatdagi ayrim

⁴⁶ Yesin A.B. Psixologizm russkoy klassicheskoy literatury. – M., 1988. – S. 176.

Yozuvchilarning qator asarlarida psixologizmning faollashganini o'z aksini topdi. J.J.Russoning "Yuliya yoki Yangi Eloiza", L.Sternning "Fransiya va Italiya bo'ylab sentimental sayohat", I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", N.M.Karamzinning "Bechora Liza" kabi qissa va romanlarini bunga misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlar nozikqalb va chuqur hissiyotga ega insonlarning ruhiy holatlari birinchi planga chiqqanligi bilan ahamiyatlidir.

Inson ichki hayotini badiiy o'zlashtirishning vositalari juda boy va rang-barang. Inson ruhiyatini tasvirlash borasidagi yo'riqlar XX asrning dastlabki o'n yilliklarida sho'ro davrida psixologizmni yoqtirmas edi.

Ammo, baxtga ko'ra, psixologizm adabiyotni tark etmadi. Bunga XX asrning ko'plab yirik yozuvchilari ijodi guvohlik berib turibdi.

XIX-XX asrlar adabiyotida psixologizmning shiddat bilan tiklanishi va qaror topishining chuqur madaniy-tarixiy sababi bor. Bu esa yangi zamon kishisida o'z-o'zini anglashga bo'lgan kuchli ehtiyoj bilan bog'liq. Zamonaviy falsafa ongni "o'zini o'zi amalga oshiradigan" va "o'zini o'rganadigan" ongga bo'lib o'rganadi⁴⁷. So'nggisini o'zini o'zi anglash deb nomlashadi. O'zini o'zi anglash "o'ziga qaytish hodisasi" dan iborat refleksiya (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) ko'rinishida amalga oshadi.

Bizning davrimizga kelib psixologizm qator badiiy asarlar qiyofasida o'zining yangi va alohida ko'rinish bilan aks etmoqda.

Yuqoridagi fikrlarda ta'kidlanganidek, psixologizm masalasi mohiyat e'tibori bilan umumiy xarakterga ega. Unda obyekt va subyekt chambarchas aloqador, shu bilan birga sub'ektning roli katta.

Inson ruhiyatini ochishda san'atkor mahoratining, mas'uliyatining o'rni to'g'risida A.Qahhorning o'zi shunday yozgan edi: "Psixologizm – kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir"⁴⁸. Qahramon hayoti davomida ko'rgan kechirganlaridan xulosa chiqarib, odamlardan begonlashib boradi. Asrlar mobaynida yechimini topmagan masalalardan charchagan paytlari "o'ziga qamalib olgisi" keladi. Xuddi shu yerda tasvirlanayotgan barcha voqea-hodisalar ruhiylashadi va ruhiy tahlil foydasiga ishlaydi. Qahramon ichki dunyosi ziddiyatlar, tangliklar, azob-og'riqlardan iborat ruhiy holatlar, og'ir kechinmalar orqali tasvirlanadi.

⁴⁷ Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germeneytike. – M., 1995. – S. 339.

⁴⁸ Qahhor A. Asarlar. 6 tomlik, T. 6. – T., 1971. – B. 277.

Badiiy asarning asosiy mazmunini kitobxonga yetkazishda, qahramonlar ruhiyatini ochishda adiblar psixologizmni ochib berishda bevosita yoki bilvosita kabi usullaridan foydalanadilar.

“Personaj o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularining ichki monolog, ong oqimi tarzda yoki muallif tilidan o‘ziniki bo‘lmagan avtor gapi bayon qilinishi psixologik tasvirning **bevosita** shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining, uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi **bilvosita** psixologik tasvirdir”⁴⁹.

Psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning ichki (ichki monolog, xotira va tasavvur obrazlari) va tashqi (muallif nutqi, mimika va psixikaga doir boshqa tashqi ko‘rinish holatlarning hissiy o‘ziga xosligini namoyon qilish) formalariga ajratish mumkin. Umumiy aytganda, yozuvchi hislarning ob‘ektiv kechish jarayoniga xalaqit bermasdan, qahramon ichki dunyosida kechayotgan tebranishlarni ifodalaydi.

Sh.Xolmirzaevning 80-90-yillardagi ijodiga xos xususiyat o‘z asarlarida INSONNI tasvirlashni bosh maqsad qilganida ko‘rinadi. U ijodkorlarni, avvalo, inson sifatidagi fazilatlarini qadrlaydi. Shuning uchun “Yozuvchi” hikoyasida Odil Yoqubovni ijodkor, adib sifatidagi qiyofasini ochmaydi, balki uni oddiy, beg‘ubor, shu bilan birga mag‘rur, qo‘rqmas inson qiyofasida tasvirleydi. Sh.Xolmirzayevning “Yozuvchi”, “Bulut to‘sgan oy”, “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyalaridagi ijodkor obrazlarini ichki dunyosini ochishda bilvosita portretidan ma‘lum darajada foydalanadi. Masalan, “Yozuvchi” hikoyasida Odil Yoqubovning tashqi qiyofasini bir o‘rinda chizmaydi, balki uni hikoya matniga sohib tashlaydi. Bir o‘rinda u Odil Yoqubovning portretini shunday chizadi: “*Oqi ko‘paygan siyrak sochi boshiga yopishib qolganday, tolas qimir etmaydi*”⁵⁰. Bu holat, ya‘ni sochining tolas qimir etmasligi, qahramonning qat‘iyatli, irodasi mustahkam inson ekanligini ifodalasa, boshqa bir o‘rinda esa: “*Shunda yo‘lka adog‘ida boshiga oqqina qiyiqni chandib olgan, devqomat otam ko‘rinadi. Yanoqlarining kengligi bilan Odil akaga o‘xshab ketadi*”⁵¹, deb qahramonni tashqi qiyofasini chizib beradi.

Yozuvchilar badiiy asar qahramonlari ruhiyatini yaqqolroq, tabiiyroq ochish maqsadida ichki monologdan foydalanadilar. Ichki monolog – badiiy asarda personajning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi bo‘lib, mohiyat e‘tibori bilan qahramon ichki dunyosini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

⁴⁹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Xalq merosi. 2004. – B.70.

⁵⁰ Xolmirzayev Sh.Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 351.

⁵¹ O‘sha kitob. – B. 355.

Sh.Xolmirzayevning “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi” hikoyasi qahramoni birinchi shaxs tilidan hikoya qilingani uchun portretidan foydalanmaydi. Ijodkor qiyofasini berish uchun ichki monologdan foydalanadi. Bunga quyidagi satrlarni keltirishimiz mumkin: *“Men hayotni yaxshi ko’rardim. Vassalom! Boricha: butun tovlanishlari, hatto fojealari bilan... Ana shu hayotdan ko’ngil sovudi-da, birodar! Sotsializmning barbod bo’lganiga achinmayman. Biroq u bilan birga mening ham nimalarimdir barbod bo’lganiga aminman: men inongan qadriyatlar puchga chiqdi... Go’yoki bugungi kungacha behudaga yashagan ekanman...”*⁵². Mana bu o’y-kechinmalar ijodkorni hayoti davomida ishonib kelgan e’tiqodi bir sarob bo’lib qolganligi uchun qalban ozor chekadi. U yolg’izlikka ko’miladi. Qissadagi ijodkor o’zini-o’zi taftish qiladi. Qissa ijodkorining psixologiyasi monolog-taftish orqali ochib beriladi. Ijodkor bir davrdan ikkinchi bir davrga o’tishda psixologik qiynaladi. U yashash uchun maqsad izlaydi. Davrga nisbatan ichki bir norozilik uyg’onadi: *“Xayriyat, eng so’nggi kitobimga uch-to’rt so’m qalam haqi tekkan edi... Ha so’nggi kitobimga!.. Hada: shu narsalar ham ta’sir etgandi-da menga... Ma’naviyatning qadri shunchalar tushib ketadimi?”*⁵³. Ijodkor hikoya so’nggida Zumradning gaplaridan yashashdan maqsadini qayta tiklab oladi. Ya’ni inson qandaydir tuzumlarga ishonib yashash emas, balki borliqni, insoniyatni sevib yashashi kerakligini uqtiradi. “Shukur Xolmirzayev asarlaridagi ijodkor obrazlari singari yolg’izlikka ko’miladi. Ijodkor faqat qalbi va yuragi bilan sirlashadi. Yozuvchi tashqi olam (borliq, tabiat) va undagi voqealar orqali o’zligini topishga, anglashga harakat qiladi. Shukur Xolmirzayevning uslubida tasvirlanayotgan voqealarning tabiati va shashtiga qarab xolislik, shafqatsizlik, qattiqqo’llik sezilib turadi, ba’zan oddiy va jo’n talqinida ham katta hayotiy falsafa va hikmat unadi”. [Mahmudova Sh.A. Ijodkor va ijodiy biografiya. ORCID: 0009-0003-1095-1723. “Alfraganus” xalqaro ilmiy jurnal. ISSN:2992-8974. 4-son. (9).2023. 50-bet]

E.A’zamning “Shoirning to’yi” qissasi va “Yozuvchi” hikoyalarida ham qahramonning portreti o’ziga xos yo’sinda bo’y ko’rsatgan. Adibning portret yaratish bobidagi mahorati qissa va hikoyaning muvaffaqiyatini ta’minlagan jihatlardan biridir. “Shoirning to’yi” qissasidagi ijodkor Otashqalb shoir – ezilgan, xo’rlangan va ayni bir paytning o’zida irodasi sinmagan, e’tiqodi buzilmagan ijodkor. Asardagi voqealardan bu shoirning barcha fazilatu qusurlari namoyon bo’la boshlagani sayin kitobxon xayolida oramizda uchraydigan sof vijdonli, mard va tanti, bir so’zli va jasur insonlarga mengzab ketadigan ijodkor siymosi gavdalana boradi. E.A’zam tashqi jihatdan “Qo’lbola aravachada o’tirgan bu odam

⁵² Xolmirzayev Sh.Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 226.

⁵³ O’sha kitob. – B. 230.

nogironlikning jamuljam timsoli edi. Tizzadan kesilgan oyoqlarning po'ntig'iga kirza etikning qo'njidan yasalgan qoplama kiygizilgan, ikkala qo'lining ham tirsakdan pasti yo'q – isqirt, yag'iri chiqqan qora paxtalikning shalviragan yenglari yuqoriga qaytarilib, bilakka chandib qo'yilgan.. egnida qalin paxtaligu boshida eskidan eski quloqchin; soch-soqoli o'sib ketgan, qo'sqi. Tashqi qiyofasidan bu yurtning fuqarosiga o'xshamaydi, uzoqdan kelgan, juda uzoqdan – musofir”, deb qahramonning tashqi qiyofasini portret orqali tasvirlaydi. Adib qahramon ichki dunyosini ham tashqi qiyofa tasviri bilan ochib beradi: “Ammo uning asov, baroq qoshlar tagidan boqib turgan o'tli ko'zlarini ko'rgan odam bir seskanib tushishi muqarrar! Va uni shubhasiz og'ir bir savol o'rtay boshlaydi: bu qadar tanish ko'zlar kimniki?”⁵⁴. Endi yozuvchi qahramon ichki dunyosini “o'tli ko'z” ichki holatiga, ichki dunyosiga nazar orqali berishni boshlaydi. Shu bois, asosiy diqqatini qahramonning ichki dunyosini, fikr va tuyg'ularini tasvirlashga qaratgani uchun uning asarlarida ichki monolog salmoqli o'rin tutadi. “Ichki”ning ahamiyati shunda ko'rinadiki, tashqi voqea-hodisalarni adib qahramon ko'zi bilan ko'rsatadi va baholaydi. Vositachi – qissago'y xuddi borliqni tushuntirish imkoniyatidan mosuvo etilgandek, qahramon shuuri orqali harakat qiladi. Tipik sharoit va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlashning bunday yangi usuli ruhiyatga o'zgacha ta'sir etadi, asarni o'qish davomida kitobxonga kuchli hissiy-ruhiy ta'sir o'tkazadi.

Personaj xarakterini ochishda portret birlamchi muhim vazifadir. Yuz-ko'z ifodasi, mimika, imo-ishora, gavda holati kabi noverbal (og'zaki bo'lmagan) xatti-harakatlar ko'pincha personaj ko'nglida kechayotgan hislardan guvohlik beradi. E.A'zam qissada shoirning nafaqat tashqi qiyofasini, balki tashqi portret orqali shakllangan ruhiy olami – qalb dramatzimini chizishga bag'ishlaydi. Yozuvchi, ayniqsa, psixologik portret orqali qahramonlarining ahvoli-ruhiyasi, tiynati sirtiga toshgan holatini ustalik bilan tasvirlaydi: “Musofir sho'rlikda qadam bosadigan oyoqning o'zi yo'qligidan u chaqqonlik bilan engashdi-da, qo'lga aylangan tirsaklarini ishga solib aravachasini tislantirdi. Ammo ketmadi, Ta'qibkorga tik boqib soqol-mo'y bosgan dahanini ochdi, o'zicha nimadir demoq bo'ldi, deya olmadi. Bu sho'rlikning boshqa a'zolari – oyoq-qo'li qatori tili ham kesilgan edi”⁵⁵.

Tashqi ko'rinish ba'zida personaj xarakteriga ishora qiladi. E.A'zam Otashqalb shoirning portretini chizar ekan, uning nafaqat jismonan, balkim ma'nan ham kamsitishlaridan o'zini himoya qila olmaydi. U ruhan azoblanadi.

Erkin A'zamning “Yozuvchi” hikoyasi Shukur Xolmirzaevga bag'ishlab yozilgan hikoya ekanligini muallif e'tirof etadi. Hikoyadagi asosiy qahramon ijodkor obrazi “domla” deb atalib, qahramon ichki dunyosi muallif qiyofasidagi

⁵⁴ A'zam E. Pakananing oshiq ko'ngli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 60.

⁵⁵ A'zam E. Pakananing oshiq ko'ngli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 61.

roviy tilidan retrospektiv (orqaga qaytib hikoya qilish) usuli orqali unga ta'rif beriladi: *"U o'rtamiyonagina yozuvchi edi... dunyoqarashi keng, jahon adabiyotidan xabardor, u mansabparast emas, aksincha, tortinchoq, kamtarin, hokisor bir yozuvchi edi. U yolg'on yozishni bilmaydigan, hayotini adabiyotga bag'ishlagan nashriyot muharriri edi"*⁵⁶. Ijodkor bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki davrda yashaydi. Muallif ijodkorni bog' bilan bog'laydi, ya'ni ijodkorning asari "Abadiy og'ochlar" kabi har doim mag'rur, egilmas va so'nmas iroda sohibi ekanligini tasvirlaydi. Adib ijodkorning xarakterini to'liq ochib berish uchun hikoyaga rais obrazini kiritadi. Bu obraz ijodkorga oyna-prizma vazifasini bajaradi. Hikoyadagi ijodkor obrazi ko'proq tafsilot va munosabatlar orqali ochib beriladi. Xususan, E.A'zamning "Yozuvchi" hikoyasi qahramoni "Domla" yoshi katta bo'lishiga qaramay, yangi davrning yangi kishisi qiyofasini aks ettiradi. Asarda domla yozuvchilikka da'vogar insonlarning orzusini amalga oshiruvchi ijrochi, kosib "ijodkor" shaxs sifatida ifodalanadi. Uning davrga xos asosiy xarakter belgilaridan biri, ijodiy faoliyatini "biznes"ga bo'ysundirgan edi. Cho'ntak dardiga muhtalo bo'lgach, "Domla" yangi "kasbi" dan voz kechgisi kelmaydi. Yangi davr talabini o'zicha anglagan yozuvchi ishdan bo'shab olib, so'lim bog' qo'ynida asar emas, balki yangidan-yangi "yozuvchi"larni yaratadi.

Dastlab, o'zining bu ishidan xijolat bo'lgan yozuvchi bora-bora bu bozor iqtisodi sharoiti, deb o'zini-o'zi yupata boshlaydi. Endi u o'z qilmishini biznes deb oqlaydi. U yozuvchilikni havas qilgan raisni "odam qil"gani uchun ajr - mukofot oladi. Manfaatparast mudirning buyrug'ini bajarish, pala-partish qo'lyozmalardan katta asarlar yasash domlaning o'zigada ma'qul tusha boshlaydi. Endi domlaning o'zi mo'may daromad topish yo'llarini o'ylay boshlaydi. Qahramonning bu holati asarda: *"Xo'sh, endi tirikchilik qanday o'tadi? Buning ham yo'lini yangi zamonning o'zi ko'rsatib berdi. Ta'bir ma'qul sanalsa, nashriyotni u uyiga - mana shu boqqa ko'chirib keldi. Gap bu yoqda ekan deng! Sarson bo'lib har kuni ishga qatnab yurmaysiz, bir tutam maoshga ko'z tikib, rahbariyatning qosh-qovog'ini poylamaysiz. Birgina alamli, armonli jihatini aytmaganda, bari naqd! Mo'may biznes!"*⁵⁷ - tarzida ifoda etiladi. Bu tasvirlar zamonning zayliga bo'ysunayotgan kishi ruhiyatini to'liq ifoda etadi. Nafsning tuzog'iga tushgan kishi kechagina o'z amal qilgan yuksak axloqiy marralarni unutadi, pokiza ideallardan yuz o'giradi. E.A'zam qahramon ruhiyati tasviri orqali uning tabiatidagi o'zgaruvchanlikni, olifta kimsalar yugurdagiga aylanishi sababini ishonarli asoslaydi. Hamisha muhtojlikda yashagan domla adabiy xizmatkorlik evaziga kelgan to'kislikni omad, baxt deb qabul qiladi. Hikoyada yozuvchilikni

⁵⁶ A'zam E. Yozuvchi // Jannat o'z qaydadir. - Toshkent: Sharq, 2007. - B. 13.

⁵⁷ A'zam E. Yozuvchi // Jannat o'z qaydadir. - Toshkent: Sharq, 2007. - B. 17.

havas qiladigan rais domlaga xizmati uchun uy sovg'a qilganida, yozuvchining quvonchi ichiga sig'may ketganligi tasvirlanadi. Asarda yozuvchi ruhiyatidagi ma'naviy ojjizliklar o'ta xolislik bilan ifoda etiladi: *"Kechalari yotib uyquusi kelmaydi deng muharririmizning! Ko'nglida bir quvonch gupurib, o'rinlaridan turib ketaveradi. Odam bo'lib kun ko'rmagan boshiga bundayin omad qaydan keldi-ya, yo Olloh? O'ziga o'xshagan bir benavo, dardman xotini uzoq yili qazo qilib, uylangan yakkayu yolg'iz o'g'li va ikki nevarasi bilan muharrir – beshavlon Chilonzorda uch xonali katalakdek uyda istiqomat qilardi. Mana, xudoyim berdi! Yetti uxlab tushiga kirmagan orzu bir lahzada ro'yobga chiqdi-qo'ydi"*⁵⁸.

Bu tasvirda E.A'zam zamonaning buyurtma asarlar yozadigan yozuvchilarni fosh etishni maqsad qilmagan, aksincha, tuzukkina ijodkorning ijtimoiy muhit va oilaviy sharoit, o'z nafsini jilovlay olmaganligi bois shunday holatga tushib qolishi mumkinligini xolis tasvirlab beradi. E.A'zam ma'naviy tutqin, davrning manqurt ijodkoriga aylangan domla obrazining xarakterini ochib berishda hikoyadagi sutchi ayol obrazini oyna-prizma sifatida qo'llaydi. Ya'ni kitobxon tasavvurida birgina sutchi xotin obrazi o'z ma'naviyatiga xiyonat qilmaydigan beozor inson sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, kasalxonadan qaytgan yozuvchi bilan munosabati tasvirida sutchi ayol ma'naviyatidagi yuksaklik to'la namoyon bo'ladi. Sutchi ayol domlani ma'budasi, pokiza ideali timsolida tasvirlanadi: *"Domlani yana bir pinhona yupancho bor – sutchi xotin. Har erta shu ayol sut ko'tarib kelganida ko'ngliga ajib bir nur kirgandek bo'ladi. Biror sabab bilan u ko'rinmay qolsa, o'zini qayga qo'yarini bilmay dilg'ash yuradi... Ammo nojo'ya biron fikrni xayoliga yo'latmaydi domla. Zinhor – bazinhor! U aslida sog'lom, shirin so'z bir oddiy qishloq ayoli edi. Oylab shaharga tushmay, ayol zotini kam uchratadigan domlaga esa bamisoli farishta bo'lib ko'rinardi"*⁵⁹.

E.A'zam bu ayol obrazi orqali hayotda har qanday sinovlarga bardosh berib, o'z ma'naviy qiyofasini o'zgartirmaydigan insonlarni aks ettiradi. *"Poraxo'rlik axloqsizlikning bir ko'rinishi bo'lib, boshqa axloqsizlarni ham yaratadi"*⁶⁰, – degan haq gap ekanini hikoyadagi yozuvchi obrazi misolida ko'rish mumkin bo'ladi. Jamiyat va uning bir a'zosidagi soxtakorlik E.A'zam hikoyasida bu darajada bo'rttirib tasvirlanmaganda, illatning mohiyati ochilmagan, ko'zga yaqqol tashlanmagan bo'lardi. Ijtimoiy hayot va odamlar ruhiyatiga shiddat bilan kirib kelayotgan bozorbop o'zgarishlar asar qahramoni ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatgani bois, u kundan-kunga o'z qiyofasini o'zgartirib, asl mohiyatidan uzoqlashib borgani hikoyada ishonarli tasvirlangan. Xuddi mana shunday o'z erkini

⁵⁸ A'zam E. Yozuvchi // Jannat o'z qaydadir. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 14.

⁵⁹ O'sha asar. – B. 19.

⁶⁰ Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988. – B. 20.

boshqalar qo'liga tutqazish A.Qahorning "Sarob" romanidagi Saidiy obrazida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Saidiy ijodi davomida real hayotni tasvirleyman deb o'ylardi. Uning "Qalandar" sarlavhali hikoyasi, "Vodiy" va boshqa she'rlari o'z qalbidan, o'z tuyg'ularidan bunyod bo'lgan edi. Bora-bora u ijodidagi erkinlikni Abbosxon qo'liga berdi. Abbosxon reja tuzib berar, Saidiy tuzilgan rejaga asosan hikoyalar yozar edi. Xo'sh, jahon adabiyotida ijodkorlarga munosabat qanday edi? Amerika adabiyotining mashhur yozuvchisi Jek Londonning "Martin Iden" romanidagi Martin Iden-chi? Martin Iden faqat aql-idroki bilan ishlashi mumkin edi. Uning odati shunaqa edi. U o'z qalami ostidan nima chiqishini bilmay, faqat tasodifga va o'z qobiliyati kuchiga tayanib, ko'r-ko'rona ishlay olmasdi. U har bir hodisaning "qanday" va "nima uchun"ligini o'zi bilishni istardi. Uning ijodi puxta o'ylangan ijod edi, shuning uchun Martin Iden hikoya yo she'r yozishga kirishishdan oldin, butun asarning rejasini miyasida puxta o'ylab olar, o'z maqsadini ham, o'z maqsadiga erishish uchun ixtiyorida bo'lgan badiiy vositalarni ham tahlil asosida qo'llardi.

Bizga ma'lumki, ijod ahli hayoti, yashash sharoiti, xarakteri haqida nafaqat o'zbek adabiyotida ham bir qator asarlar yaratilgan. A.Qahorning "Sarob" romanidagi Saidiy o'zi boy oiladan, uning otasi boy bo'lib, ish boshlamasdan sinib, yer bilan yakson bo'ladi va o'zini osadi. Saidiydagi xudbinlik, shuhratparastlik, manfaat yuzasidan boylik orttirish kabi fazilatlar o'sha boy, badavlat ota qonidan o'tgan. J.Londonning "Martin Iden" romanidagi Martin Iden esa kamsuqum, ko'p bolali oilada tug'ilib, faqat qashshoqlikni ko'radi. Uning xarakterida boylikka o'chlik, xudbinlik zarracha ham yo'q. Norvegiyalik yozuvchi K.Hamsunning "Viktoriya" qissasidagi Yuxannes ham oddiy xizmatchi oilasida tug'ilib, faqat qashshoqlik bilan umr kechiradi. Ijodkor har qanday sharoitda ham o'z e'tiqodini o'zgartirmaydi. "Martin Iden" romani yozuvchi J.Londonning eng mashhur asarlaridan bo'lib, unda yozuvchi o'z hayotini aks ettirgan. Asar qahramoni sog'lom Martin juda og'ir mehnat natijasida ajoyib asarlar yaratadi. E.A'zamning "Yozuvchi" hikoyasidagi domla esa yoshi ulug' bo'lishiga qaramay, o'z e'tiqodiga ega emas, u nafs quliga aylanadi.

Norvegiyalik yozuvchi Knut Hamsun esa o'z ijodi davomida insonning eng oliy tuyg'ularini, uning ruhiyati, hayot so'qmoqlaridagi qiyinchiliklarni yenga olish xususiyatlarini ochib beradi. Yozuvchi bu romanda o'z shaxsiyati - ijodkor Yuxannes qiyofasida ko'radi.

Demak, Domla va Saidiy davr muhitining mahbuslaridir. Ular ma'naviy tutqinlikdagi ijodkor obrazlaridir. Bu qahramonlar boylik orttirish, moddiy manfaat yo'lida o'z e'tiqodlaridan voz kechib, o'zligini unutgan ijodkorlardir.

Yozuvchilarni, bir tomondan, muhit, ijtimoiy hayot shu kuyga soldi, ikkinchi tomondan, o'zining irodasizligi, qulayliklarga o'chligi ham pand berdi. Hikoyadagi: *"Pul, mol-dunyo degani har qanday vullomatini ham quturtirmay qo'ymas ekan"*, – tasviri qahramon dunyoqarashidagi o'zgarishlar sababini ko'rsatadi.

E.A'zam "Shoirning to'yi" qissasi va "Yozuvchi" hikoyasida ijodkor xarakterining barcha nozik qirralarini badiiy vositalar, hayotiy detallar asosida tasvirlaydi. Uning badiiy uslubiga xos yana bir jihat shundaki, yozuvchi obrazlarni g'oyaga moslashtirib tasvirlashni yoqtirmaydi. Imkoni boricha, u qahramonlarining hayotiy, o'z yo'li va tutumiga ega bo'lishini istaydi. Shu bois E.A'zam qissa va hikoyasidagi ijodkor obrazlari bo'g'iq muhitda ham to'g'ri yashashning choralarini izlayotgan, yo'l topishga intilayotgan kishilardir.

Xulosa qilib aytganda, asar qahramonlari – ijodkorlarning tabiatan yolg'izlikka (uzlatga) chekinishi xarakteri ularni bir nuqtaga birlashtiradi. Ularning baxt to'g'risidagi qarashlari turlicha ifodalanadi. Bu ijodkorga xos bo'lgan tabiatlilik, xarakter esa Sh.Xolmirzayev, E.A'zam, N.Eshonqul kabi yozuvchilarning shaxsi, o'y-kechinmalari bilan tanishishga yo'l ochadi.

XX asr yozuvchilari asarlaridagi ijodkor obrazlari (Saidiy, Martin Iden) mualliflar tomonidan qandaydir bir sinfiy kurash, tuzumga bo'lgan tanqidiy qarashlarining vositasi sifatida bo'y ko'rsatib, ular ruhan isyonkor, o'z mantig'i doirasida hech bir qoidaga bo'ysunmasligi, ajoyib asarlar yaratganligini tasvirlash asosiy mezon bo'lib, ular mana shu davr muhitidan ruhan azoblanib, o'zlarini halok etgan bo'lsalar, XXI asr adiblari o'z asarlarida ijodkorni qandaydir tuzumga bo'lgan siyosiy qarash sifatida, sinfiylik nuqtai nazaridan emas, balki endi ijodkor shaxsiga nisbatan xolisroq yondashish boshlandi. Ijodkorni inson sifatidagi o'y-kechinmalari, uning ijod jarayonidagi ruhiy bezovtaliklari tasvirlanadi. Ijodkorlarning ruhiyatiga va ijod jarayoniga XX asr ijtimoiy muhitning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Ular bu ruhiy azobdan qutulish yo'llarini izlay boshlashadi va ularning ongli yangilanish sari qadam qo'yishlariga sababchi bo'lgan kuchlarning ta'siri tasvirlanadi. Mana shu xususiyat bilan ular XX asr ijodkor obrazlaridan farq qiladi. Ular endi mustaqillik davri ijodkorlarining badiiy qiyofasi sifatida bo'y ko'rsatadi. Mustaqillik davrida ularning onggi ham yangilana boshlaydi, qalblarida yashashga bo'lgan umid tug'iladi, o'z xatolarini anglay boshlashadi. Bu esa ularni o'z-o'zini anglay boshlaganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Tamarchenko N.D. Teoreticheskaya poetika: ponyatiya i opredeleniya. Xrestomatiya dlya studentov filologicheskix fakultetov. – M.: RGGU, 1999. – Slovar .Wielpert G. von. Sachw? rterbuch der literature. –S. 264-265.

Kojinov V. Rasskazchik // Slovar literaturovedcheskix terminov. 1964. – S. 310-411.

Losa M.V. Yosh romannavisga xat // Sharq yulduzi. – 2012. № 4. – B. 157.

Eshonqul N. Momoqo'shiq. / Yalpiz hidi. Toshkent: Sharq, 2008. – B. 161.

Mandelstam O. Yegipetskaya marka. – L., 1928. – S. 67.

Orlova Ye.I. Obraz avtora v literaturnom proizvedenii: uchebnoe posobie. – M.: MGU, 2008. – S. 44.

Ilin I.P. Implitsitnyy avtor Tekst / I.P. Ilin // Zapadnoe literaturovedenie XX veka: Ensiklopediya / Gl. red. Ye.A. Surnanova. – M.: Intrada, 2004.

Losa M.V. Yosh romannavisga xat // Sharq yulduzi. – 2012. № 4

[http://www.ulugbek](http://www.ulugbek.hamdam.uz) hamdam.uz. Hamdam U. Yangi avlod ovozi., Suhbat.

Mahmudova Sh..A. Artistic psychologizm in uzbek literature of the twentieth century// Omega science. – Kirov,2019. <https://os-russia.com/arh-conf>

Mahmudova Sh.A. The concept of psychologizm in the literature, techniques and metods of psychological image. – Nauchniy vesti,2019

Esin A.B. Psixologizm russkoy klassicheskoy literatury. – M., 1988.

Kompaneets V.V. Xudojestvennyy psixologizm v sovetskoy literature (1920-ye gody.) – T., 1980. – S. 113.

Umurov H.I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: Fan, 2007. – B. 42.

Uellek R i Uorren O. Teoriya literatury. – M.: Progress, 1978. – S. 95-107.

Yesin A.B. Psixologizm russkoy klassicheskoy literatury. – M., 1988. – S. 176.

Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevtike. – M., 1995. – S. 339.

Mahmudova Sh.A. Ijodkor va ijodiy biografiya. Toshkent. "Alfraganus" xalqaro ilmiy jurnal. ISSN:2992-8974. 4-son. (9).2023. 50-bet. ORCID: 0009-0003-1095-1723. shohistaxon.mahmudova@mail.com.

Qahhor A. Asarlar. 6 tomlik, T. 6. – T., 1971. – B. 277.

Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Xalq merosi. 2004. – B.70.

Xolmirzayev Sh.Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 351.

A'zam E. Pakananing oshiq ko'ngli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 60.